

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.E.Madaliyev</b>	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
<b>N.R.Mansurova</b>	
Zamonaviy oliy ta'limda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari .....	120
<b>M.M.Maxamadjonova</b>	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
<b>I.I.Soliyev</b>	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi .....	132
<b>D.D.Mirzaakbarov</b>	
Koreys tilini mustaqil o'rganishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li .....	136
<b>A.Y.Axmedov</b>	
Kommunikativ kompetensiya bo'lajak psixologlarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida .....	141
<b>N.B.Dusimbetova</b>	
Jurnalistika yo'nalishi talabalari kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati .....	146
<b>S.T.Aldasheva</b>	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati .....	151
<b>A.T.Nazarov</b>	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili .....	154
<b>U.K.Rahmonov</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
<b>S.A.Mahmudova</b>	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
<b>J.O.Amirov</b>	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
<b>X.O.Pardayeva</b>	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi .....	184
<b>M.Barakayev, M.Nasritdinov</b>	
Ta'limni raqamlashtirish shartitida o'quvchi-talabalarni noxiziq fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
<b>Sh.O.Aripov</b>	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiyalarining tarixi.....	195
<b>M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova</b>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomillashtirish omillari .....	200
<b>D.T.Nishonova</b>	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
<b>S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov</b>	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish.....	213
<b>X.X.Abdurahmov</b>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
<b>M.M.Turg'unov</b>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi.....	223



UO'K: 378:37.02:37.035:159.9:305

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA GENDER MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING  
PEDAGOGIK MOHIYATI VA PSIXOLOGIK ASOSLARI****ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ  
ГЕНДЕРНОЙ КУЛЬТУРЫ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ****PEDAGOGICAL ESSENCE AND PSYCHOLOGICAL BASIS OF GENDER CULTURE  
DEVELOPMENT IN FUTURE EDUCATORS**

**Saydullayeva Aziza Raximovna**   
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotasiya**

Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash bilan birga pedagoglar tayyorlashga gender yondashuvni keng tadbiiq etish vazifalari, xotin-qizlar imkoniyatlarni ta'minlash rivojlantirish dolzarb aloqador bilim va ko'nikmalarini muntazam takomillashtirishga qaratilgan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются педагогическая сущность и психологические основы развития гендерной культуры у будущих педагогов, задачи модернизации системы подготовки будущих педагогов, а также задачи широкого применения гендерного подхода в подготовке педагогов. , представлено развитие соответствующих знаний и навыков, обеспечивающих возможности для комментариев женщин, направленных на регулярное совершенствование.

**Abstract**

In this article, the pedagogical essence and psychological foundations of the development of gender culture in future pedagogues, the tasks of modernizing the system of training future pedagogues, as well as the tasks of wide application of the gender approach to the training of pedagogues, the development of relevant knowledge and skills to provide opportunities for women comments aimed at regular improvement are presented.

**Kalit so'zlar:** gender tafakkur, pedagogik-psixologik, gender tenglik, globallasuv sharoit, gender farqlar, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, ilmiy faoliyatga, ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiya, ijtimoiy himoyaga.

**Ключевые слова:** гендерное мышление, педагогико-психологическое, гендерное равенство, условия глобализации, гендерные различия, социальная необходимость, непрерывное образование, индивидуальные качества, научная деятельность, образовательные стандарты, образование и воспитание, социальная защита.

**Key words:** gender thinking, pedagogical-psychological, gender equality, globalization conditions, gender differences, social necessity, continuous education, individual qualities, scientific activity, educational standards, education and upbringing, social protection .

**KIRISH**

Bugungi kunda bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash bilan birga pedagoglar tayyorlashga gender yondashuvni keng tadbiiq etish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Chunki gender yondashuv ma'lum bir ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etish asosida erkak va ayollarning imkoniyalarini tenglashtirish va ulardan teng foydalanishga qaratilgan munosabat hisobalanadi. Gender madaniyat ijtimoiylashishning asosiy shartlaridan biri bo'lib, ijtimoiy madaniy jarayonda o'g'il va qiz bolalarning ishtirok etishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham mutaxassislar gender madaniyat tushunchasiga ehtiyotkorlik bilan yondoshadilar. Mazkur tushuncha ko'p jihatdan shaxsning ijtimoiy madaniy jarayonda ishtirok etib, madaniy boyliklarni o'zlashtirishiga bog'liq bo'lgan maskulinlik va femininlik har doim gender tadqiqotlar mohiyatini birday anglash imkoniyatini bermaydi. [1]

Pedagogika, psixologiya, sotsiologiyaga oid zamonaviy yondashuvlar, ilmiy qarashlar gender madaniyatining o'ziga xos jihatlarni ochish, ijtimoiy madaniy muhitda shaxsning

muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlashga yo'naltirilgandir. Shunga qaramasdan, bo'lajak pedagoglarda gender yondashuv asosida ommaviy madaniyatga qarshi immunitetni shakllantirish yo'nalishida yetarlicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmagan. Gender yondashuv asosida talabalarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirish sifatli gender tafakkurni taqozo etadi. Bunday gender tafakkur esa emperik materiallar yetarli bo'lgan vaziyatda vujudga keladi. Gender yondashuv asosida talabalarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirish ularni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish, xalqning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Bunday vaziyatda talabalar ijtimoiylashtirish jarayonining faol subyektiga aylanadilar. Ularda qizlarda xotin-qizlarga, o'g'il bolalarda esa erkaklarga xos sifatlar shakllanib, o'z-o'zini anglash ko'nikmalari rivojlanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Talaba yigit va qizlarning har birida jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan jinsga xos rollar, munosabatlar va muomala madaniyatini shakllantirish, bunda xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasiga tayanish, ularning jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli moslashishlari uchun zarur hisoblanadi. N.I.Andreyevaning ta'biricha, gender madaniyat – bu mazkur jamiyatda jinsning ijtimoiy-madaniy rollarini shakllantiruvchi yo'nalishlar, gender rollar, gender munosabatlar, gender stereotiplar, oilaviy nikoh qoidalari hamda amal qilinadigan nuqtai nazarlar, ustanovkalar, prinsiplar, xulq-atvor matritsalarini tizimini ifodalaydi. Jinslar ijtimoiy madaniy hodisa kabi bir turga mansub emas. [2]

O'zbekiston Respublikasida gender yondashuv asosida uzluksiz ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, kasbiy ta'limda gender masalalari kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar (O.Musurmonova, N.Egamberdiyeva, R.Samarov, U.Temirova va boshqalar) amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari gender yondashuv orqali tahlil etilgan, pedagogik ta'limda gender yondashuv masalalari o'rganilgan. Olimlarning fikricha, o'qituvchilarni tayyorlashda gender jihatlarni ishlab chiqish jarayoni va amalga oshirish tamoyillari, ularni pirovard natijaga olib keluvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Gender jihatlarni tushungan o'qituvchi gender muammolaridan xabardorligi va his qila olishi asnosida yosh avlodni ongli fikrlash va harakat qilishiga imkon yarata oladi. Shunday ekan, ta'limda gender tenglikni amalga oshirish harakati o'qituvchidan boshlanib, uning kasbga tayyorlash bosqichidan, to uzluksiz malaka oshirish bosqichigacha, butun faoliyatini qamrab olishi kerak. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko'nikmalarni, shu jumladan, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, mustaqil va hamkorlikda ishlashga o'rgatish gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Gender yondashuv – gender tengsizligining mavjudligini va ularning sabablari, oqibatlarini tushunish hamda ularning yechimini ta'minlash to'g'risidagi yondashuv. Gender yondashuv erkak va ayollar o'rtasidagi gender munosabatlaridagi o'zgarish bo'lib, erkaklar va ayollar uchun foydali ta'sir ko'rsatadigan vakolatlar va majburiyatlarni yanada teng taqsimlashga yordam beradi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda gender yondashuv esa – ta'lim strategiyasini ishlab chiqishda, kasbiy tayyorgarlik mazmuni va texnologiyalarini belgilashda, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda gender masalalarini bevosita jalb qilishni o'z ichiga oladi. Fikrimizcha, oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari, ya'ni tarbiyaviy, ta'limiy (ta'lim mazmuni) va metodik (o'qitish metodlari, o'quv jarayonini tashkil etish, pedagogik hamkorlik) jihatlarni, shuningdek, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini, ta'lim tizimini boshqarishni gender masalalariga ta'sirchanligini oshirishni ko'zda tutadi.[4]

Gender muammosi, eng avvalo, ijtimoiy muammo ekanligi, ya'ni faqat ayolning emas, balki erkaklarning ham, jamiyatning ham muammosi ekanligini ta'kidlashga to'g'ri kelmoqda. Ular biologik jinslar va aholini ko'paytirish borasidagi vazifalar taqsimotinigina anglatmaydi, balki gender munosabatlar butun madaniyat, jamiyat qurilishi, davlat institutlarini qamrab oladi. Ular tilga, urf-odatlar va qadriyatlarga, turmush tarzi va hatto ishlab chiqarishga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu tarzda gender yondashuvining umumiyligi uni "feministik" va "xotin -qizlar" masalalaridan ajratuvchi asosiy jihatlardan biridir. Ma'lumki, G'arbda gender mazmuni nafaqat jinsiylikka, balki ongli yoki

ongsiz ravishda tengsiz munosabatlar asosiga qurilgan mafkura va institutlarga qarshi qaratilgan edi. Shu bois, eng avvalo, gender nazariyalari ta'lim amaliyotlari, bilish va ta'lim jarayonini tanqid qilish shaklida namoyon bo'lgan va jamiyatdagi mavjud siyosiy nuqtai nazarni ifodalagan. Bugungi kunga kelib, hech qanday boshqa tadqiqot va ta'lim strategiyalari Amerika va Yevropadagi akademik ta'lim tuzilmalarining o'zgarishiga bu qadar kuchli ta'sir ko'rsata olmaganligi tan olingan.[3]

Mamlakatimizda o'zbek qizlarining ko'rkam xulqli bo'lishi milliy tarbiyaning asosiy talablaridan birini tashkil qiladi. Yaxshi xulq qizlarning faqat axloq-odob, go'zallik, mehnat va boshqa tarbiyasining nazariy asosini emas, balki ana shu tarbiyalanganlik darajasini o'z shaxsiy hayotida qo'llashi bo'lib hisoblanadi. Bunda esa eng katta mas'uliyat ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, qiz bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch-qudrat bu onadir. Ota ko'pchilik xalqlarda oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta'minlash qolaversa, oilaning xo'jalik ishlari bilan band bo'ladi. Bu o'zbek oilalarining tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan an'anadir. Shunga ko'ra bola bilan ko'proq ona birga bo'ladi<sup>1</sup>. Xalqimizda "Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi" degan naql bejiz aytilmagan. Ammo, keyingi vaqtlarda jamiyatimizdagi ba'zi oilalarda bola tarbiyasi borasida salbiy holatlarni ham uchratish mumkin. Masalaning pedagogik oqibatlariga qaralsa, bu ayrim ota-onalarning farzandlari bemehrligidan nolishida namoyon bo'ladi. Masalan, farzandlarning yomon yo'lga kirib ketganligiga munosabatda ko'pchilik ota-onalarning fikrlari bir xil: "o'z bilganidan qolmaydi, hurmat qilishni bilmaydi". Buning ijtimoiy sabablari sifatida ota-onalarning bola tarbiyasiga e'tiborsizligida namoyon bo'ladi. Ota-ona, qarindosh urug'lari bor bolalar ham "Mehribonlik uyi"ga topshirilmoqda. Bu esa, "O'nta bo'lsa o'rni boshqa" degan tamoyilga amal qilib kelgan ota-bobolarimizning qadriyatlariga ziddir.

Ayniqsa, qizlar tarbiyasining izdan chiqishi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. O'zbek qizlarini tarbiyalashda oila hayotining, millat hayotining davomiyligini ta'minlashda bilimlar, tajribalar qizlarga o'tmas ekan, bilim, ko'nikma va malakalar ajdodlardan avlodlarga o'tkazilmas ekan, oila hayoti ham, ijtimoiy hayot ham degradatsiya(inqiroz)ga uchray boradi. Shu bois, onalarning qizlarga beradigan tarbiyalari, tajribalari oila va ijtimoiy hayotda o'z o'rnilarini topishning zaruriy ehtiyojlari talabi bo'lib kelgan hamda shunday bo'lib qoladi. Agar qizlar ilk yoshlardan boshlab, ijtimoiy faol shaxs sifatlarini egallasa, o'z navbatida komila onalar, barkamol shaxslar bo'lib yetishadilar. Shunday ekan, aslida har bir xalqning taraqqiy etishida ijtimoiy faol sifatli qizlarning tarbiyalariga bog'liq, deb xulosa qilish mumkin.

O'zbek milliy ahloqiy qadriyatlari tizimiga oid tadqiqotlarida esa olimlar qizlar ma'naviyati, tarbiyasi muammolarini qamrab olgan muayyan masalalar bilan bog'liq holda qisman o'rganib chiqishgan. Shunday qilib, o'zbek milliy tarbiya tizimida gender differentsiyalangan tarbiyani tashkil etishning tarixiy pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"ni hayotga joriy qilish samaradorligini salmoqli darajada boyitadi va yoshlar tarbiyasining strategik muammolarini, shu jumladan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini oshirishga hissa qo'shishi mumkin. Aksariyat mualliflar asosan, xalqning an'anaviy pedagogik merosi mazmunini o'rganadilar va shundan keyingina shaxsni o'quv jarayonining obyekt sifatida ko'rib chiqadilar. Biroq, biz ushbu tajribani rivojlanayotgan jamiyatning amaliy faoliyatida qo'llash usullarini, mexanizmlarini takomillashtirish kerak, deb hisoblaymiz. Bundan tashqari pedagogika fanida qizlar tarbiyasi asosan, oilaviy hayotga tayyorlash nuqtai nazaridan o'rganish bilan cheklanib qolganligini ta'kidlash lozim bo'ladi.

O'zbek etnopedagogikasi sohasida bir qancha tadqiqotlar mavjud, ammo qizlar tarbiyasi xususiyatlarini o'rganish, qiz bola shaxsini shakllantirish jarayonining nazariy va amaliy mazmunini tadqiq qilish, mamlakatimizning turli hududlarining milliy-madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib, zamonaviy qizlar tarbiyasi xususiyatlari, an'alarini o'rganish, o'zbek xalqining urf-odatlarini asosida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"ni hayotga joriy qilish dasturini modellashtirish hamda zamonaviy qizlarni shakllantirish jarayonida uni qo'llash samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganish zarurati mavjud.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadini oydinlashtirish uchun gender farqlarni hisobga olgan holda "tarbiyani differentsiyalash" tushunchasini kiritish lozim, deb hisoblaymiz. Biz tadqiqotimizda "gender" va "gender differentsiyasi" tushunchalaridan foydalanamiz. Tarbiyaga gender yondashish bu - gender omilining ko'p qirrali ta'sirini hisobga olishdan iborat bo'lib, bu xususiyatning bir necha jihatlari: biologik jins, jinsiy rol stereotiplari, jinsiy meyorlar, gender rolning

## PEDAGOGIKA

o'ziga xosligini o'z ichiga oladi. Biologik unsur bilan belgilanadigan psixologik va neyrofiziologik bilimlar o'g'il va qiz bolalarning o'ziga xos xususiyatlaridir. O'g'il va qiz, erkak va ayol shaxsining shakllanishi hamda rivojlanishida ijtimoiy muhit muhim omil hisoblanadi. "Gender", "gender farqlar", "gender differentsiatsiyasi" tushunchalarining ijtimoiy-madaniy tarkibiy qismlari zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarning so'nggi yo'nalishlari bo'lib, qizlar tarbiyasini rekonstruksiya(qayta qurish) qilish va gender differentsiatsiya shartlari bo'lib xizmat qiladi. "Tarbiyaning gender differentsiatsiyasi" tushunchasini "tarbiyaning jinsiy differentsiatsiyasi", "gender farqlarni hisobga olgan holda differentsiatsiyalash" va "tarbiyaning mazmuni, vosita, metodlarini o'g'il yoki qiz bolaning gender xususiyatlaridan kelib chiqib tanlash" tushunchalari mazmunida qo'llaniladi. "Gender" atamasi "jins" so'zidan kengroq tushunchaga ega bo'lgani va zamonaviy ilmiy tilning xolis terminiga aylangan. Shuni ta'kidlash kerakki, "jins" va "gender" tushunchalarining nisbati va ta'rifi hali to'liq ommalashmagan, shuning uchun biz "gender" tushunchasini biologik jinsning o'ziga xos milliy, madaniy psixologik hamda psixofiziologik xususiyatlari bilan belgilanishi mumkin, deb hisoblaymiz. Shunday qilib, mazkur tadqiqotda "gender differentsiatsiyasi", "gender tafovut" va "gender farq"larni hisobga olgan holda "ta'limni differentsiatsiyalash" tushunchalari bir-biriga yaqindir.[5]

**NATIJALAR**

Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi tarbiyaga yangicha va tizimli yondashuvni taqozo etmoqda. Bu esa yigit va qizlardagi ijobiy fazilatlarni shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yuqori pog'onalariga ko'tarishni talab etadi. Bu haqda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev qayd etganidek: "Har qanday mustaqil davlat mustahkam ma'naviy poydevorga ega bo'lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. Shu maqsadda birinchi marta "Tarbiya" fanini joriy etmoqdamiz" - deya ta'kidlab o'tgani bejiz emas. Binobarin, mazkur yo'nalish doirasida amalga oshiriladigan ishlar o'zining istiqboldagi vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan. Biroq, bu borada mamlakatimiz yoshlarini Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik hamda boshqa fazilatlarni shakllantirish orqali mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit va qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, ayrim yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, irodalilik, matonatlik, tirishqoqlik kabi fazilatlari yetarli darajada rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini kuzatish mumkin.

Gender madaniyatni rivojlantiruvchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy-tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, talabalar uchun zarur darsliklar yetarli emasligi ko'zga tashlanmoqda. Ushbu kamchiliklarni oldini olish va bartaraf etishda gender madaniyatni rivojlantirish orqali milliy-ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Farzandlarimizning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo'lib qoladi". Prezidentimizning ushbu fikrlari borasida bugungi kunda mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni himoya qilish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlari, ayollarning mehnat va turmush sharoitini yaxshilash, gender tenglikni ta'minlash borasidagi ishlar ham izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, kam ta'minlangan oilalarda kamol topayotgan qizlarning bilim olishlari uchun shart-sharoitlarni takomillashtirish maqsadida yangi tizim joriy etildi. Ushbu tizimga muvofiq, o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlariga bunday qizlarimiz uchun davlat granti asosida 940 ta qo'shimcha o'rin ajratildi". Albatta, bu mamlakatimizda gender madaniyatni rivojlantirish doirasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z navbatida mamlakatimizning kelgusidagi rivojlanishiga zamin yaratadi.

Bugun mamlakatimizda gender madaniyatni rivojlantirishning bosh omiliga aylantirish masalasi bo'yicha alohida vazifalar belgilab olingan edi. O'zbekistonning ilg'or yoshlari davlat, otionalarining maqsadli, uzluksiz tarbiyalari tufayli turli sohalarda, dunyo miqyosida zalvorli yutuqlarni qo'lga kiritayotganligi, hozirgi davr talabi ta'lim-tarbiyaga o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'yishni taqozo etmoqda. Ta'lim va tarbiyani bir-biridan alohida ajratib bo'lmazligi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqli, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash hamda tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni voyaga yetkazish aytib o'tilgan. Shu bilan birga O'zbekistonda yoshlar tarbiyasining integratsiyalashuviga, ya'ni ta'lim va tarbiya hamohangligiga,

hozirgi kun ehtiyojlariga tayangan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashning bosh omiliga aylantirish ishlariga katta ahamiyat berilmoqda.

### MUHOKAMA

O'zbekistonda gender madaniyat tarbiyasini milliy asosda ilmiy-texnologik modernizatsiyalash bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga innovatsion yondashuv yoshlarda tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlaridan kelib chiqib, ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yuksak pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi. Afsuski, hozirgi davr yoshlarimiz ongida Vatan oldidagi burch, mas'uliyat, tashabbuskorlik tushunchalarini o'z ongida shakllantira olish ko'nikmalari nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda amaliy odatlarga aylanmayapti. Bu esa, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yigit va qizlarning hayotda o'z o'rnilarini topishlariga to'sqinlik qilmoqda. Ayrim yigit va qizlarda aniq maqsadlarning shakllanmaganligi, o'z-o'zini o'qishga jalb qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatayotganligini kuzatish mumkin. Gap shundaki, yoshlarda gender madaniyatni rivojlantirish muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish istiqbolli vazifa sifatida belgilangan. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, oila har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Uni har taraflama rivojlantirish, birinchi navbatda ayol shaxsi bilan, qolaversa, boshqa oila a'zolariga ham bog'liq. Ayollarning savodlilik va tarbiyalilik darajasi yuqori bo'lsa, oiladagi farzandlar tarbiyasida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki, har qanday shaxs, dastavval, ona bag'rida ruhan va jisman shakllana boshlaydi, so'ngra ota hamda boshqa yaqinlar bilan birga ulg'ayadi.

Bugungi kunda yoshlarning turli salbiy guruhlarga qo'shib qolish holatlari ham uchrab turayotganligiga alohida e'tibor berish lozim. Bunday holatlarning oldini olish uchun oilada sog'lom psixologik iqlim yaratish, oila a'zolarining munosabatlarida o'zaro ishonch va ularning muomalasi, oiladagi yigit-qizlar hamda ayollarga nisbatan o'zaro hurmatning mavjudligi, albatta ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo miqyosida yigit va qizlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy faollik kabi fazilatlarini shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda. Gender tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olmaslik, ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qila olmaslik, hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarning shakllantira olmaslikka sabab bo'ldi. Bular o'z navbatida, oila-jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishi, loqaydlik, huquqbuzarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlarini osonlikcha qabul qilinishi kabi illatlarning keng miqyosda tarqalishiga zamin yaratdi. Aynan mamlakatdagi ta'lim va tarbiya tizimi milliy g'oya hamda mafkura g'oyalarini hayotga tatbiq etishda muhim omil hisoblanadi. Gender ta'lim va tarbiya shaxsiy-ijtimoiy yondashuv uyg'unligini nazarda tutadi. Bu pedagogning har bir qiz bolaga individual yondashuvini, har bir qiz bolaning betakror va fenomenalligini ochish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy o'zaro ta'sir subyekti sifatida munosabatda bo'lishini anglatadi. Yigit va qiz bolalar bilan hayot subyektlari sifatida munosabatda bo'lish o'z mavqeini sferalarini hamda usullarini izlashda yordam berish, qo'llab-quvvatlash "adaptiv fenomenlikka" qobiliyatni egallashga xizmat qiladi. Negaki, islohotlarning muvaffaqiyati, davlatimizning dunyoda rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, eng avvalo, ta'lim taraqqiyoti rivoji bilan bog'liq bo'lsa, yana bir tomondan global o'zgarishlarga bog'liq. Bugun imkoniyatlar ko'lamining kengligi bilan birga, axborotlar makonining ham kengayganligi, turli maqsad va manfaatlarga yo'naltirilgan har xil g'oya, qarashlar, uni targ'ibot qilish texnologiyalari, ijtimoiy ong hamda tafakkurga ta'sir ko'rsatish omillari kuchayganligidir.

### XULOSA

Xulosa qilganda, yigit va qizlarning ongi, tafakkurini zararli ta'sirlardan himoyalash, ichki dunyosini komillik sari yo'naltirish orqali bo'shliqlarni to'ldirish zarurdir. Bu kabi barcha ezgu ishlarni amalga oshirish, albatta yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lgan o'qituvchi hamda murabbiylarimiz yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Bu ta'lim jarayonida yigit va qiz bolalar o'rtasida ma'naviy qadriyatlarimiz, o'zbek xalqining o'ziga xos

## PEDAGOGIKA

urf-odatlari, faoliyatlarini targ'ib qilish, ularning har birining o'ziga xos mavqeni egallashlari uchun zamin hozirlash lozimligini ko'rsatdi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Xolmatova Z.T. Ta'lim kontekstida "gender" tushunchasining pedagogik mohiyati va xarakteristikasi. "Boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy – innovatsion yondashuvlar O'zbekiston Respublikasi miqiyosida". // 2019 yil.
3. Narbayeva T. K. Mamlakatimizda ta'lim va tarbiyani rivojlantirishda xotin-qizlarning o'rne. // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. –Nukus, 2018. №4. 37-39 b.
4. Raximovna, S. A. (2022). Development of Gender Culture. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 16, 88-92.
5. Сайдуллаева, А. Р. (2022). НАЗНАЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОЙ-АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(18), 705-711.
6. AR Sadullayeva - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2023 - sciencebox.uz Journal of Advanced Research and Stability Page 1 Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 03 | Mar - 2023 ISSN: 2181-2608 [www.sciencebox.uz](http://www.sciencebox.uz)